V.I.ROMANOVISKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGIILMIY DARAJA BERUVCHI DSC.02/30.12.2019.FM.86.01RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ABDULLAH KURUDIREK

TA’LIM JARAYONIDA NOYEVKLID GEOMETRIYASI ELEMANTLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (matematika)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TASHKENT-2022

UDK: 372.851

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Content of thesis abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

V.I.ROMANOVISKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSC.02/30.12.2019.FM.86.01RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ABDULLAH KURUDIREK

TA’LIM JARAYONIDA NOYEVKLID GEOMETRIYASI ELEMANTLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (matematika)

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TASHKENT-2022

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertaciya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasi (http://kengash.mathinst.uz) va «ZiyoNet» Ahborot ta`lim portalida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Artikbayev Abdullaaziz** fizika-matematika fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Zayitov Adilbek Ataxanovich** fizika-matematika fanlar doktori, professor
	Hakimov Otabek Norbuta o‘g’li fizika-matematika fanlarbo‘yicha falsafa doktori(PhD), katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy Unversiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanoviskiy nomidagi Matematika insituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Imliy kengashning 2022 yil « ___ »_____soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Unversitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanoviskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Unversitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Dissertatsiya avtorefarati 2022 yil « ___ » _____ kuni tarqatildi.
(2022 yil « ___ » _____dagi -raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

G’.I.Botirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash xuzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasining izohi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahonda matematika ta’limining o‘sish tendentsiyalari ko’rsatishicha, o’qitishning zamonaviy shakllari va texnologiyalari milliy, mintaqaviy va global miqyoslarda jadal rivojlanmoqda.Xususan, iqtidorli o‘quvchilarni yoshligidan tanlash ularni maqsadli o‘qitishga qaratilgan AQSH va Yevropa mamlakatlarida keng qo‘llanilayotgan “Merit” (o‘rta maktabda iqtidorli bolalarni tanlash), “Xed start” (akademik o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan kompensator o‘qitish) kabi loyihalar keng qo‘llanilmoqda. Maktabda matematikani o‘qitish, iqtidorli yoshlarni o‘qishga jalb qilish har doim muammo bo‘lgan. Bu o‘rinda matematikaning bo‘linmas qismi bo‘lgan geometriyaning alohida o‘rni bor. Geometriya fanini o‘qitishda faqat hisoblash emas, fazoviy tasavvurni rivojlantirishga alohida e’tibor berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda bu loyihalarni qo‘llash, iqtidorli yoshlarni ertaroq aniqlash, ularning iqtidorini maqsadli yo‘nalishida rivojlanishiga erishish borasidagi tatqiqotlar muhum o‘rin egallamoqda. Hozirgi davrda O‘zbekistonda ham yoshlar tarbiyasiga katta e’tibor qaratilayotganini e’tirof etish zarur. Bunda respublikada yangi tashkil qilingan prezident maktablari, matematika yo‘nalishida o‘qituvchi maxsus maktablar, shuningdek, sa’nat va xunarmandchilik sohasiga yo‘naltirilgan maktablarni misol sifatida keltirish mumkin. Bu maktablarning zamona talabiga javob beradigan binolar va kompyuter texnologiyalari bilan taminlanganligi davlatimizning yoshlarga yaratgan imkoniyatlarning namunasidir. Ayniqsa, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, to‘la va yaxshi bilim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning matematika fani yo‘nalishida jahon olimpiadalarida faol ishtirok etishini ta’minlash uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Bu imkoniyatlar yoshlarni zamona talabiga javob beradigan qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda matematikani zamonaviy talablarga mos ravishda o‘qitish, nafaqat, yangi o‘qitish usullarini joriy qilish, shuningdek, fan tarkibini yangi tushunchalar bilan boyitish, uning o‘quvchi uchun qiziqarli bo‘lishini ta’minlash borasida tizimli ishlar olib borilyapti. Xususan, ta’lim tizimining maktabgacha ta’lim, boshlang’ich sinflar va yuqori sinflarda fanlarning zamonaviy yutuqlari haqidagi ma’lumotlar uzliksiz va uzviylik bilan ta’lim jarayoniga kiritilib bormoqda. Matematikada konbinatorika elementlari va ehtimollar nazariyasining boshlangiz tushunchalari kiritilishi ta’lim dasturining jahon standartlari darajasida bo‘lishiga qaratilgandir. Bu borada geometriya faniga zamonaviy noyevklid geometriya tushunchalarni kiritish dolzarb ilmiy metodik ishlardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da “Informatika, matematika, kimyo, biologiya” kabi boshqa muhim va talabi yuqori bo‘lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish[1] ustuvor

[1]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi 2017 yil 18 maydagi «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 292-sonli qarori.

vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai-nazardan maktabda geometriyani o‘qitishda yevklid bo‘lmagan geometriya tushunchalaridan foydalanish o‘quvchilarni fazoviy tasavurini rivojlantirish ilmiy izlanuvchanlik kompintensiyalarini oshirishda muhim axamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan**.**

Muammoning o‘rganilayotganlik darajasi. “Noyevklid geometriya” atamasi XX asr boshlarida paydo bo‘ldi va juda faol rivojlandi. Bu atamani paydo bo‘lishi o‘sha davrda va hozirda ham maktabda o‘qitiladigan geometriyani “yevklid geometriyasi” deb atalishiga sabab bo‘ldi. “Noyevklid geometriya” yo‘nalishining rivoji va undagi asosiy muammolar B.A.Rozenfeldning noyevklid geometriyaga bag’ishlangan monografiyalarda to‘la keltirilgan.

O‘tgan asrning 60-yillarigacha noyevklid geometriya tushunchasi, asosan, ilmiy izlanishlarda yoki faqat oliy ta’lim tizimida ishlatilgan. Bunga sabab noyevklid geometriyasi tushunchasining asosan aniq fanlarning murakkab masalalarini yechishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lganligidir.Ammo 1969-yillardan keyin noyevklid geometriyasing tekislikdagi holi o‘zining sodda va elementar matematikaga yaqin bayoniga ega bo‘ldi. Bu o‘z navbatida noyevklid geometriyaga doir ilmiy ommabop manbalarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shuning bilan vaqtda maktab o‘quvchilari va talabalar uchun mo‘ljallangan I.M. Yaglomning “Galileyning nisbiylik nazariyasi va noyevklid geometriya” deb nomlangan kitobi chop etildi (1969). Bu kitob tekislikda mavjud bo‘lgan proyektiv metrikalik geometriyalar bayoniga bag’ishlangan edi. Shundan so‘ng asrning 75-yillarga kelib, maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan o‘zbek tilidagi kitoblar paydo bo‘lgan. Bunga misol sifatida Naim G‘aybullayevning 1975-yilda chiqqan “Maktabda noyevklid geometriya elementlari” kitobini keltirish mumkin. Bu kitobda asosan elliptik va giperbolik ya’ni Labachevskiy geometriyasining aksiomatik qurulishi hamda asosiy tushunchalari berilgan.

V. Tyorston tamonidan uch o‘lchovli ko‘pxillar geometriyasi o‘rganilishi va barcha noyevklid geometriyalarni qamrab olishga qodir bo‘lgan geometriya fanining yangicha talqini umuman bu fanga, xususan tekislikdagi noyevklid

geometriyalarga yangicha nuqtai-nazardan qarashni paydo etdi. Shuning bilan noyevklid geometriyalarning aksiomatik qurilishi bilan bog'liq bo'lgan bir qator muommolarni xal qilinishiga olib keldi. Shu sababdan XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan tekislikdagi noyevklid geometriya va uni sodda usulda o'quvchilarga o'rgatishga mos keladigan ko'plab adabiyotlar paydo bo'ldi. Ulardan, E.F.Krause (1986), A.B. Khachaturian (2005), A.Artikbayev, I. Hamdamovlarning "Tekislikda to'qqizta geometriya" (2021) kabi ommabop adabiyotlar tekislikdagi geometriyalarga bag'ishlangan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Funksiyalar nazariyasi, funksional analiz, differesial tenglamalar va ularning tadbiqiga oid masalalarni tadqiq qilish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablarida geometriya faniga noyevklid geometriyalari tushunchalarini kiritish yo'li bilan o'quvchilarni fanga qiziqishini orttirish.

Tadqiqotning vazifalari:

tekislikda mavjud noyevklid geometriyalarini o'rganish;

noyevklid geometriyalarda maktab geometriya fanining asosiy tushunchalariga yaqin mavzularni aniqlash;

Yevklid va noyevklid geometriyalarining asosiy tushunchalarni taqqoslash;

iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, o'quvchilarni fanga qiziqtirishning noyevklid geometriyasi vositasida takomillashtirish usullarini ishlab chiqarish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'rta ta'lim maktablari geometriya fani o'qitiladigan yuqori sinf o'quvchilari.

Tadqiqot predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida Evklid bo'lmagan geometriyalar orqali matematikani takomillashtirish mazmuni, shakl va medotlari.

Tadqiqot usullari. Adabiyotlar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni, maktab darsliklari va noyevklid geometriyasiga doir ilmiy maqolalardagi o'zgarishlarni tahlil qilish, darsdan tashqari to'garaklar tashkil etish, munozara guruhlari yoki guruh muhokamalari orqali tanlangan talabalar guruhi mavzuni muhokama qilish, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va ma'lumotlarni tizimlashtirish kabi metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tekislikda mavjud sodda noyevklid geometriyasiga doir tushunchalar maktab geometriya darsligi usullariga mos ravishda bayon etilgan hamda masofa va metrika atamalari orasidagi umumiylik va bir-biridan farqlilik sodda misollar bilan tushuntirilgan;

Galiley geometriyasidagi siklning Yevklid geometriyasidagi aylana urinmasi va kesuvchisi bilan bog'liq xossalari ko'rsatilgan;

uchburchak tengligiga doir birinchi va ikkinchi alomatning o'rinli hamda uchinchi alomatning bajarilmasligi yordamida o'quvchilarga teorema isbotini o'rgatish usuli takomillashtirilgan;

noyevklid geometriya elementlaridan foydalanib, o‘quvchilarni matematikaga qiziqtirish usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilarda o‘z aksini topgan:

noyevklid geometriya elementlaridan foydalanib, iqtidorli talabalarni aniqlash usullari takomillashtirildi;

noyevklid geometriyasiga doir tushunchalarni o‘rganish, o‘quvchilarga yevklid geometriyasiga doir xossalarni chuqurroq tahlil qilish odatini hosil qilishga imkon berildi;

o‘quvchilarni ilmiy-izlanish qilishga jalb qiladigan, darsdan tashqari o‘qitiladigan loyihalar, to‘garaklar tayyorlash usullari takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tatqiqot muammosining ijobiy natijasini topishda ilg’or pedagogik, psixologik tajribalar, matematikaning zamonaviy usullari, metodikaning asoslangan qonunlariga tayanganligi va tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash va baholash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tatqiqotning ilmiy ahamiyati tekislikda Galiley geometriyasiga oid elementar geometrik xossalari isbot qilingan va bu xossalarining yevklid geometriyasi uchun ham ahamiyati mavjudligi ko‘rsatilgan. Bu noyevklid geometriyasini o‘rganish, yevklid geometriyasiga ham yangicha qarash yo‘lini ko‘rsatishi bilan izohlanadi.

Tatqiqotning amaliy ahamiyati noyevklid geometriyasi elementlari bilan tanishish o‘quvchilarda fanga qiziqishni, ilmiy mulohaza qilish ko‘nikmalarini paydo qilishi bilan amaliy ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Ta’lim jarayonida noyevklid geometriyasi elemantlaridan foydalanish metodikasi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

tekislikda mavjud sodda noyevklid geometriyasiga doir tushunchalar hamda masofa va metrika atamalari orasidagi umumiylik va bir-biridan farqlilikka oid sodda misollar Iraqning Sulaymaniya shaxridaqi xalqaro kembrij tipidagi maktabda (https://www.facebook.com/USGirls.H) o‘tkazilgan to‘garaklarda o‘quvchilarning tekislikda mavjud noyevklid geometriyalar haqidagi bilimlarni shakllantirishda foydalanilgan (Sulaymaniya shaxridagi maxsus qizlar o‘rta maktabining 2021 yil 4 yanvardagi №02-sonli ma’lumotnomasi, Iraq respublikasi). Natijada 9-sinf o‘quvchilarida noyevklid geometriyalarning maktab geometriya fanidagi asosiy tushunchalariga yaqin mavzularni aniqlashni imkonini bergan;

Galiley geometriyasidagi siklning Yevklid geometriyasidagi aylana urinmasi va kesuvchisi bilan bog‘liq xossalar va Taxicab geometriyasiga oid tushunchalardan 2013-2015 yillarda ta’lim sohasida olib borilgan tatqiqot loyihalarida va maxsus ixtisoslashgan maktablarda o‘tkazilgan “noyevklid geometriyasi” mavzusida tugaraklarda foydalanilgan (Tishk xalqaro universitetining 2022 yil 3 yanvardagi №58-sonli ma’lumotnomasi, Iraq respublikasi). Natijada yuqori sinf o‘quvchilarida noyevklid geometriyalar haqida tasavvurini paydo qilish va bu geometriyani nazariyada va amaliyotda solishtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 maqola, shundan 2 tasi respublika va 8 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzulushi va hajmi. Dissertatsiya kirish va 4 bobdan, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatindan iborat bo‘lib, xajmi 76 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot usullari keltirilgan. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ularning ishonchliligi, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy etilishi haqida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tekislikda noyevklid geometriyalar”** deb nonlangan birinchi bobida Geometriyaning zamonaviy ta’rifi, Minkovskiy geometriyasi, Galiley geometriyasi hamda chekli va taksikab geometriyasining asosiy tushunchalari keltirilgan bo‘lib, bu tushunchalar maktab o‘quvchilariga tushunarli darajada bayon etilgan. Shuningdek, keyingi boblarda zarur bo‘lgan tushunchalar ta’rifi va ularning ba’zi xossalari referat shaklida berilgan.

Dissertatsiyaning “**Noyevklid va yevklid geometriyasi asosiy tushunchalarini taqqoslash**” deb nomlangan ikkinchi bobi maktab o‘quvchilarini noyevklid geometriya tushunchalari bilan tanishtirish va ularni yevklid geometriyasidagi mos tushunchalar bilan solishtirish imkoni bo‘lgan mavzularga bag‘ishlangan. Bu bobda keltirilgan mavzular asosida maktabda qo‘shimcha darslar yoki to‘garaklar tashkil etish mumkin. Bu ishlarni qanday amalga oshirish usullari keltirilgan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafidametrika va masofa tushunchalarining ta’riflari keltirilib, ularning bir-biriga o‘xshash va o‘xshash bo‘lmagan tomonlari misol bilan tushuntirilgan.

Masofa ikki nuqta funksiyasi sifatida turli qiymatlar qabul qilishi mumkinligi Minkovskiy geometriyasidagi masofa yordamida misollar bilan tushuntirilgan. Galiley geometriyasidagi masofaning geometrik ma’nosi tushuntirilgan.

Dissertatsiyaning Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida yevklid tekisligidagi harakat, parallel ko‘chirish va burishdan iborat ekanligi va bu harakatda bir-biriga o‘tadigan shakllar isometrik shakllar deb atalishi aytilgan.

Koordinatalari boshini saqlagan holda koordinatalar o‘qini burish alohida keltirilgan. Koordinatalarni burishda tekislikdagi aylana o‘zi-o‘ziga o‘tadi. Bu xossa noyevklid tekisliklarda ham o‘rinli ekanligi Minkovskiy geometriyasi va

Galiley geometriyasi koordinatalarini burish formulalarida tushuntirilgan. Galiley geometriyasidagi ikkinchi xil aylana “sikl” tushunchasi berilgan.

Yevklid va noyevklid geometriyalarida burchak tushunchasi bir xil ta’riflanadi. Shuningdek, burchak kattaligini aniqlash usuli ham bir-biriga o‘xshash. Bu masalalarni yevklid va noyevklid geometriyalarida aniqlash o‘quvchilar uchun juda qiziqarli mashg‘ulot bo‘ladi. Shuning uchun, ushbu bobning uchinchi paragrafida burchak va uni o‘lchash usullari Galeliy va Minkovskiy gometriyalarida xuddi yevklid geometriyasiga “o‘xshash” ekanligi ko‘rsatilgan.

Haqiqatan ham, galiley geometriyasida ham burchak kattaligi xuddi yevklid geometriyasidagidek markazi burchak uchida bo‘lgan aylana yoyi uzunligiga teng qilib aniqlanadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Noyevklid geometriyalari tushunchasidan o‘quv jarayonida foydalanish**” deb nomlangan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafida uchburchaklarning tenglik alomatlariga doir tushunchalar berilgan. Ma’lumki, uchburchak tengligining uchta alomati yevklid geometriyasida asosiy, to‘la isboti bilan beriladigan, bo‘limni tashkil etadi.

Galiley geometriyasida masofa va burchak tushunchalari yevklid geometriyasidan boshqacha bo‘lgani sababli, uchburchakning uchta tomoni bo‘yicha tengligi alomati bajarilmaydi.Uchta tomonlari teng, ammo o‘zaro teng bo‘lmagan uchburchaklarni chizmada ko‘rsatishimiz mumkin. Bu o‘quvchilarda galeley geometriyasiga qiziqishni orttiradi.

Shu bilan bir vaqtda, uchburchak medianasi, bissektrisasi, balandligi tushunchalarini galiley geometriyasida ta’riflaymiz.

Affin tushuncha bo‘lgani uchun, mediana bu geometriyalarda bir xil ta’riflanadi va bir xil xossaga ega.

Burchak galiley geometriyasida boshqacha bo‘lganidan, bissektrisa ham boshqa geometrik shaklda bo‘ladi.

Galiley geometriyasida balandlik tushunchasini ta’riflashga alohida e’tibor qaratishi zarur. Bu tushunchaning ta’rifi yevklid tekisligidagi balandlik xossasiga suyangan bo‘lishi kerak. Bunda nuqtadan to‘g‘ri chiziqqacha masofa tushunchasi katta ahamiyatga ega.

Yevklid va Galiley geometriyalari orasidagi bog‘lanish, hamda bir-biridan farq qilishi o‘quvchilarda har doim qiziqish uyg‘otadi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafidaGaliley tekisligida ko‘pburchaklar tushunchalarini umumlashtirishga harakat qilingan.Galiley geometriyasida paralellogramning ta’rifini yevklid geometriyasidagi kabi olsa bo‘ladi. Ammo to‘g‘ri to‘rtburchak kvadrat kabi xususiy hollar mavjud bo‘lmaydi. Faqat parallelogrammning qarama-qarshi uchlari maxsus to‘g‘ri chiziqqa tegishli bo‘lganda, uni romb deb atash mumkin bo‘ladi.

Qavariq ko‘pburchaklarning ichki burchaklarini o‘rganish, qiziqarli natijalarga olib keladi. Xususan, tekislikdagi qavariq ko‘pburchaklar uchun ushbu teorema isbot qilingan.

1-teorema. Qavariq ko‘pburchaklarning ichki burchaklari yig‘indisi, tayanch(asos) burchaklari yig‘indisiga teng: $\alpha + \beta = \sum_{i=1}^{n-2} \theta_i$.

Bu teorema berilgan uchburchak ichki burchaklari yig‘indisi tushunchasini ko‘pburchak uchun umumlashgani hisoblanadi. O‘quvchilarda juda katta qiziqish paydo bo‘ladigan va o‘zlari chizmalarda o‘lchab ko‘rib, aniq hisoblash yo‘li bilan, haqiqatan ham, tengligiga ishonadigan tushuncha galiley geometrasidagi yuza tushunchasi.



Shakl: Ko‘pburchak

2-teorema. Uchburchakning yuzi uning asosi va balandligi uzunliklari ko‘paytmasining yarmiga teng: $S = \frac{1}{2} \cdot a \cdot h_b$, $S_{ABC} = \frac{1}{2} AC.BD = \frac{1}{2} AC'.B'D'$





Bu formulaning geometrik jihatdan qiziqarli bo‘lishini quyidagi shakldan ko‘rish mumkin.



Bunda $L_1 // L_2$ bolganda $S_{ABC_1} = S_{ABC_2} = S_{ABC_3}$

Bu yarda ham $S_{ABDC} = S_{A'B'D'C'}$

Yuza tushunchasidan foydalanib, Galiley harakati ta'sirida uchburchak (teorema 4) va trapetsiyaning (teorema 5) lar isbotlangan.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi galiley tekisligida sikl xossasiga bag'ishlangan. Sikl uchun quyidagi xossalar isbot qilingan.



1-xossa. Sikldan tashqaridagi nuqtadan siklga ikkita urinma o'tkazish mumkin.

2-xossa. Siklga undan tashqarida yotgan nuqtadan urinmalar o'tkazilgan bo'lsa, u nuqtadan urinish nuqtalarigacha bo'lgan masofalar teng.



$$A'M' = M'B'$$

3-xossa. Sikldan tashqarıda yotgan nuqta berilgan bo'lib, bu nuqtadan siklni A, B nuqtalarda kesuvchi to'g'ri chiziq o'tkazilgan bo'lsa, $LA \cdot LB$ – ko'paytma faqat L nuqtaga bog'liq.



$$LA \cdot LB = LM^2$$

Galiley tekisligidagi sikl, yevklid tekisligidagi parabola bo‘lgani sababli, yuqorida keltirilgan xossalar yevklid parabolasi uchun ham o‘rinlidir.

Uchinchi bobning to‘rtinchi paragrafda noyevklid geometriyasiga doir tushunchalardan foydalanib, matematik o‘yin, proektlar tashkil qilish usuli berilgan. Bu usullarni biz taksikab geometriyasi tushunchalari yordamida berdik. Chunki, bu geometriyaning hayotiy ma’nosini o‘quvchilar yaxshi tushunadilar. Biz keltirgan boshqa noyevklid geometriyalar uchun ham shu usulda matematik o‘yinlar va praektlar tashkil etsa bo‘ladi.

Bu matematik o‘yinlar va proektlarni tuzishdan maqsad, noevklid geometriyasining elementlarini maktab dasturiga kiritishga sabab bo‘ladigan asoslarni yaratishdir.

Proekt oddiy moduldan iborat bo‘lib, biz uni beshta qadamda amalga oshirishni taklif etdik.

Birinchi qadam geometriyaga doir asosiy tushunchalar bilan tanishtirish. Bu tushunchalar birinchi bobda har xil geometriyalar uchun berilgan.

Ikkinchi qadam masofa tushunchasini aniq hayotiy misollar bilan tushuntira olish. Bunda biz taksikab geometriyasidagi masofa tushunchasini xonaning o‘zida o‘quvchilar ishtirokida qanday bajarish mumkin ekanligini amalga oshirish usulini berganmiz.

Uchinchi qadamda masofa va masofa yordamida aylana formulasini keltirib chiqarish usuliga bag‘ishlanishi rejalashtirilgan.

To‘rtinchi qadam, o‘rganilayotgan noyevklid geometriyada to‘g‘ri chiziq, burchak, doira va uchburchak shakllarini hosil qilish, tassavur qilish va amalda ko‘rsatish.

Beshinchi qadam, uchburchaklar tengligi va uchburchakka doir asosiy tushunchalarni tasovvur qilish. Noyevklid geometriyasidagi uchburchak va elementlarini yevklid holi.

Bu besh qadamda o‘quvchilar noyevklid geometriyaga doir asosiy tushunchalar haqida yetarli darajada ma’lumotga ega bo‘ladi.

O‘rganish jarayonida bo‘lishi mumkin bo‘lgan murakkabliklar qanday bartaraf qilish usullari va modulni yana qanday davom ettirish imkoni paragraf oxirida berilgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**Tadqiqot muhokamasi va xulosalar**” deb nomlangan. Bu bobning birinchi paragrafida “noyevklid geometriya” tushunchasi oid ba’zi natijalar keltirilgan. Ya’ni, bu paragrafda avvalo talabalarga Labochevskiy geometriyasini tushuntirishga bag’ishlangan.

Talabalar bilan galiley yoki taksikab geometriyasi bo‘yicha ishlash juda qiziqarli bo‘ldi. Bu geometriyadagi faktlarni evklit geometriyasidan tubdan farq qilishi, ammo o‘quvchilar uchun tushunarli ekanligi, bu yo‘nalishda olib borgan mashhulotlarimizga biz kutgandan ham ko‘proq talabalar kelishiga sabab bo‘ldi.

Tadqiqotlarni Qurdistonda olib bordik. Bu yerdagi maktablarning xilma-xilligi bizga o‘qish jarayonida qo‘shimcha “Noyevklid geometriya” bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish imkonini berdi.

Birinchi taklif Sulaymonidagi xalqaro kembrij tipidagi maktabdan boʻldi, keyingi taklif qizlar uchun oʻrta maktabdan boʻldi. Bu maktablarda biz, asosan, taxsikab geometriyasiga doir uch oylik kurslarni oʻtdik.“Birodar maktablar” proyekti asosida bizni qilgan ishlarimiz boshqa maktablarga ham tarqaldi. Masalan, bu ishlarni Erbil shahridagi birodar maktablarimizdan biri boʻlgan Erbil oʻgʼil bolalar maktabida olib bordi.

Shuningdek, “Noevklid geometriya haqida suhbatlar” nomli mening oʻquvchilarim tomonidan qilingan tadqiqotlar, yuzlab oʻquvchilarni bu gʻoyalardan xabardor qildi.

Oʻz ish faoliyatimda “Kengroq oʻyla, yoshlikdan boshla, hoziroq boshla” degan soʻzlarni qanchalar toʻgʻri ekanligiga ishondim. Bu soʻzlar Iroq maktablarida oʻquvchilar uchun shior sifatida ishlatiladi.

Faoliyatim davomida oʻquvchilarni haqiqatan ham, geometriyaga qiziqtira oldim deb hisoblayman. Chunki ular oʻrganib qolmay, oʻz tengdoshlari oʻrganishi uchun har xil taqdimotlar qila boshlashdi.

Oʻylaymanki, “noyevklid geometriya” tushunchasini maktab oʻquv rejasiga kiritilishi nafaqat oʻquvchilarni matematikaga qiziqishini kuchaytiradi, u hattoki oʻqituvchilardan ham oʻz kasbiy qobiliyatlarini kuchaytirishni talab qiladi.

Toʻrtinchi bobning ikkinchi paragrafi “Tadbirlar va musobaqalar” deb nomlangan boʻlib, paragrafda tadbir oʻtkazish tartibi va unga zarur boʻlgan koʻrgazmali manbalar haqida fikr yuritilgan.

Biz 2014-yil Iroq milliy olimpiadasida qatnashdik va birinchi oʻrinni egalladik. Albatta, bu olimpiadada qatnashish uchun avvalgi tanlovlarda qatnashish va gʻolib chiqish zarur.

Bu gʻoliblik bizga AQSHda oʻtkazilgan “INTEL ISEF” – Los-Anjelesdagi loyihada qatnashish imkonini berdi.

Tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

Koʻrsatish, asosiy tushunchalarni berish yoʻli bilan oʻrta maktabda noyevklid geometriyasini oʻrgatish mumkin;

Noyevklid geometriyasiga qiziquvchi oʻquvchilarni ragʻbatlantiring, chunki bu ularning umuman fikrlashini va dunyoqarashini kengaytiradi;

Noyevklid geometriyani, xuddi anʼanaviy yevklid geometriyasini tushuntirishning ogʻir usulida emas, yangicha qiziqarli usulda berilishi zarur.

Toʻrtinchi bobning uchinchi paragrafidatavsiyalar va xulosalar keltirilgan. Asosiy tavsiyalardan biri, oʻqituvchi maktabga geometriya faniniyaxshi oʻqitishi uchun, uning oʻzi noyevklid geometriya tushunchalaridan xabardor boʻlishi zarur.Bu oʻqituvchiga geometriya fanini oʻqitishda oʻziga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Talabalarni kreativlik, erkinlik va oʻziga xoslilik yoʻqligi uchun ayblash kerak emas. Ularga bu xossalarni rivojlantirishga olib keladigan manbalarni bera olish kerak.

Bu borada noyevklid geometriya elementlaridan xuddi “yangicha qarash” usuli sifatida foydalanish zarur. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib quyidagilarni tavsiya qilamiz:

– matematikaga ixtisoslashgan o‘rta maktablarda noyevklid geometriya fanidan sinov kurslari tashkil etish zarur;

– noyevklid geometriyasini mazmuni va pedagogik bayon usullariga o‘qituvchilarni tayyorlash kerak;

– avvalo, o‘qituvchilarni, keyin esa qiziquvchi o‘quvchilarni noyevklid geometriyasi bilan tanishish imkonlarini yaratish zarur;

– matematika o‘qituvchisi sifatida biz o‘quvchilarimizda noyevklid geometriyasining bu olamni o‘rganishdagi o‘rni va yangicha qarash usuli ekanligini ko‘rsatishimiz kerak.

O‘ylaymanki, yoshlarning noyevklid geometriyasi tushunchalari bilan tanishishi, yevklid geometriyani yaxshiroq anglashiga va umuman, ularning matematikadan kompentensiyasini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, noyevklid geometriyasi bilan ixtiyoriy darajadagi o‘quvchini tanishtirish, o‘quvchida yangi ixtirolarni ochishga sabab bo‘lishi mumkin.

Bizning sikliga oid natijalarimiz maktabga geometriya kursi programmasida o‘ziga mos qabul qilinishi lozim deb hisoblayman.

XULOSA

Mazkur dissertatsiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarida geometriya faniga noyevklid geometriyalari tushunchalarini kiritish yo‘li bilan o‘quvchilarni fanga qiziqishini orttirish bag’ishlangan.

Tadqiqot ishining asosiy natija va xulosalari quyidagilar:

1. Masofa va metrika atamalarini o‘rganish o‘quvchilarda umuman atamalarga ilmiy yondashuvni hosil qilishga olib keldi.
2. Burchak yuza tushunchalari o‘lchovlar nazariyasing xilma-xilligi kompitensiyalarini rivojlantirdi.
3. Noyevklid geometriyalarda uchburchak, aylana kabi tushunchalarni aniqlash aniq fanlardagi umumiylik va xilma-xillikni o‘rganish imkoniyatini berdi.
4. Noyevklid geometriyasini o‘rganish yevklid geometriyasiga ham o‘quvchilarda e’tiborlik bo‘lishini talab qiladi.
5. Noyevklid geometriyalardan foydalanish uchun maktab o‘qituvchilarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash talab etiladi.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I. ROMANOVSKIY

TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

ABDULLAH KURUDIREK

METHODS OF USING NON-EUCLIDEAN GEOMETRY CONCEPTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

13.00.02 – The methodology of teaching and upbringing (Mathematics)

ABSTRACT OF THESIS OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PEDAGOGICAL SCIENCES

TASHKENT-2022

Thesis has been prepared at Tashkent State Transport University.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://kengash.mathinst.uz and on the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz/.

Scientific supervisor:	**Artikbayev Abdullaaziz** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Official opponents:	**Zayitov Adilbek Ataxanovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
	Hakimov Otabek Norbuta o'g'li Doctor of Philosophy (PhD) in Physical and Mathematical Sciences, Senior researcher
Leading organization:	**National University of Uzbekistan**

Defense will take place "____"_____ 2022at_____at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy. (Address: University str. 9, Almazar district, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Thesis is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy (is registered №_____). (Address: University str. 9, Almazar district, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of the thesis sent out on «____» _____ 2022 year.
(Mailing report № ___ on «____» _____ 2022 year).

U.A.Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Professor

J.K.Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

G.I.Botirov
Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

INTRODUCTION (abstract of the doctoral (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation. Growing trends in mathematics education worldwide show that modern forms and technologies of teaching are developing rapidly at the national, regional, and global levels. Some example projects such as Merit (selection of gifted children in high school) and Head Start, widely used in the United States and Europe to select gifted students from an early age, are widely used. It has always been difficult to attract talented young people by teaching mathematics at school. In this case, geometry, which is an integral part of mathematics, has a special role. In the teaching of the science of geometry, special attention should be paid not only to calculation but also to the development of spatial imagination.

Research on the application of these projects globally, early identification of talented young people, and developing their talents in the targeted direction is essential. It should be noted that in Uzbekistan, a lot of attention is paid to the education of young people. For examples include the newly established presidential schools in the country, special schools for teachers of mathematics, as well as schools focused on arts and crafts. The fact that these schools are equipped with modern buildings and computer technology is an example of the opportunities created by our state for young people. There are all the conditions to support especially talented young people to gain in-depth knowledge and ensure their active participation in the World Mathematical Olympiads. These opportunities serve to educate young people to meet modern requirements.

In our country, systematic work is being carried out to teach mathematics under modern requirements to introduce new teaching methods and enrich the content of science with new concepts to make it interesting for students. Information on the current achievements of science in the education system in preschool, primary and upper grades is being continuously and continuously integrated into the educational process. The introduction of combinatorial elements in mathematics and the initial concepts of probability theory aim to ensure that the curriculum is at the level of world standards. In this regard, the introduction of modern non-Euclidean geometry concepts in the science of geometry is one of the current scientific and methodological works. The Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan identifies in-depth study of other essential and demanding subjects, such as computer science, mathematics, chemistry, and biology, as a priority. In this regard, non-Euclidean geometry concepts in the teaching of geometry in schools play an essential role in developing students' spatial imagination and increasing the competencies of scientific inquiry.

The subject and object of research of this dissertation are in line with tasks identified in the Decrees and Resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan of February 7, 2017, PF-4947, «On the strategy of action for the further development of the Republic of Uzbekistan», PQ-4387 dated July 9, 2019

